



## DENDROLOGIK EKSPERTIZA VAZIFALARI VA IMKONIYATLARI

**Samadova F.Z**

*X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi eksperti*

**Qodiraliyeva S.B**

*X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi bosh ilmiy xodimi*

*sugdiyonaqadirova256@gmail.com*

Dendrologiya (grekcha dendron — daraxt, logos — fan) botanikaning bir qismi bo'lib, daraxt va butalarning sistematikasini, biologik hamda ekologik xususiyatlarini, evolutsiyasini, morfologik va anatomik tuzilishini, fiziologiyasini, geografik tarqalishi hamda xalq xo'jaligidagi ahamiyatini o'rganadi.

Dendrologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishiga o'rmonchilik, bog'dorchilik va ko'kalamzorlashtirish sohalarining xalq xo'jaligidagi ahamiyatining tobora ortib borishi sabab bo'ldi.

Dendrologiya fan sifatida bir tomonda o'simliklarning morfologiyasi va sistematikasi bilan uzviy bog'langan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'ziga yaqin bo'lgan fanlar — o'rmonchilik, o'rmon taksatsiyasi, o'rmon sileksiyasi, madaniy o'rmonlar va o'rmon melioratsiyasi kabi maxsus fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Hozirgi paytda dendrologiyada daraxt-buta o'simliklarining geografik tarqalishi, morfologiyasi, ayniqsa ichki yoki anatomik tuzilishi, biologik (hayotiy) va ekologik (tashqi muhit bilan munosabati) xususiyatlari hamda tur ichidagi shakillarning turli tumanligini o'rganishga e'tibor ortmoqda. Dendrologiya, umuman olganda o'rmon biologiyasi haqidagi ta'limotning birinchi bo'limi bolib, o'rmon hayotining mohiyatini tushunish, uni maqsadli o'zgartirish uchun o'rmonning asosiy tarkibini hosil qiluvchi daraxt-butalarni bilish hamda ajrata olish kerak.

Xalq xo'jaligida daraxt va butalar dendrologiya o'rganuvchi asosiy obyekt sifatida muhim ahamiyatga egadir. Avvalambor ular sanoat va xalq xo'jaligida keng foydalaniladigan yog'och mahsulotlari olishning yagona manbaidir.

Daraxt va butalar o'rmon melioratsiyasida ayniqsa tog' o'rmon hamda qum sahro melioratsiyasida muhim ahamiyatga ega. Daraxtlarni himoyalovchi ihota o'rmonlari qishloq xo'jaligi ekinlarini garmsel shamollardan saqlab, hosildorligini oshiradi. Tog' bag'irlarida terrasalarga ekilgan daraxt turlari kuchli rivojlangan gorizontaldiz tizimlari bilan tuproqni mustahkamlaydi, shu sababli tog' o'rmonlari eroziyaning oldini oladi.



Ko'chma qumlamida mustahkamlashda psammofit o'simliklar — saksovul, cherkez, qandim, quyonsuyak va astragal kabilarning ahamiyati kattadir. Turli xil iqlim, tuproq sharoitlarga mos keluvchi qurg'oqchilikka, sovuqqa chidamli, mahsuldor va uzoq yashaydigan xilma-xil daraxt-butalarning tanlash ham dendrologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Dendrologiya ekspertizasi daraxtlarning turini aniqlash, ularning patologiyalari va kasalliklarini, qulash sabablarini ochish va turli maqsadlar uchun daraxtlarning holatini baholash uchun amalga oshiriladi.

Ekspertizaning vazifasi aniq bo'lmagan va kasbiy bilim va tadqiqot usullaridan foydalanishni talab qiladigan faktlar yoki holatlarga aniqlik kiritishdir. Agar jinoyatlarni tergov qilish yoki bahsli masalalarni hal qilishda o'rmon ekinlari, daraxtlar va butalar bilan bog'liq holatlarni, nobud bo'lish sabablarini aniqlash yoki atrof-muhitga yetkazilgan zararni baholash zarur bo'lsa, dendrologik ekspertiza o'tkaziladi. Dendrologik tekshiruv hal qila oladigan muammolar doirasi juda keng.

Dendrologiya tadqiqoti obyektlari quyidagilardir:

- daraxtlar
- butalar
- o'tlar va maysazorlar
- o'rmonlar
- parklar
- bog'lar
- shahar o'simliklari

Tadqiqotning asosiy maqsadlari:

- daraxt turini aniqlash
- patologiya va kasalliklarni aniqlash
- ildiz holatini baholash
- daraxtning qurishi, o'limi yoki qulashi sabablarini aniqlash
- barqarorlikni baholash
- parvarishni baholash

Eng ko'p talab qilinadigan - bu daraxtlarning mashinalar va odamlarga qulashi sabablarini aniqlash bo'yicha ekspertiza. Ushbu tadqiqotlarning asosiy qismi shamolli mavsumda, qurib qolgan va kasal daraxtlar qulab tushganda amalga oshiriladi. Biroq, shamol faqat katalizatoridir. Qulash uchun zarur shart-sharoitlar shaharlarga xos bo'lgan daraxtlarning sog'lig'iga putur yetkazadigan ekologik jarayonlardir.

Sud ekspertizasi mutaxassislari daraxtning qulashi sababini aniqlashga va buning uchun mas'ul shaxs yoki muassasani aniqlashga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sud huquqlaringizni himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ekspert xulosasi chiqariladi.





Mutaxassisga berilishi mumkin bo'lgan savollar:

- Ko'rib chiqilayotgan daraxt qulashidan oldin yashashga yaroqli bo'lganmi?
- Daraxt nuqsonlari va belgilari (ildiz tizimining rivojlanmaganligi, nekroz-saraton shakllanishining rivojlanish belgilari va daraxt tanasining pastki qismida yog'ochning yadro chirishi yoki boshqa og'ishlar) uning sifatsiz holatiga va favqulodda holatga olib kelishi mumkinmi?
  - Barg plastinkasining shakliga ko'ra, ekspertiza uchun taqdim etilgan obyektidagi tasvir tabiatda mavjud bo'lgan qaysi o'simliklarga mos kelishi mumkin?

Misol uchun: Bog'dorchilik shirkati bog'da o'sgan qarag'ay daraxtlarini ekspertizadan o'tkazish uchun mutaxassisga murojaat qildi. Mutaxassisga quyidagi savol berildi: Daraxtlarning holatini baholang va ularni parvarish qilish bo'yicha tavsiyalar bering. Mutaxassis 13 ta daraxt (qarag'ay)ni ko'zdan kechirib, ularning holatini baholab, tavsiyalar berish bilan xulosa qildi. Umuman olganda, daraxtlar uchta qarag'aydan tashqari sog'lom edi. Mutaxassis tomonidan sog'lom daraxtlarning yuqori va pastki shoxlarini kesishni va kasallik belgilari bo'lgan uchta daraxtni olib tashlash tavsiya etildi.

#### Dendroxronologik tekshiruv

Dendroxronologik tekshiruv dendralogiya ekspertizasi tarkibidagi bo'lim hisoblanib, bugungi kunda muomaladagi yog'ochning qonuniyligi yoki noqonuniyligini isbotlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Dendroxronologik tadqiqotlar 1920-yildan beri rivojlanib kelmoqda. Xususan Rossiya davlati bu turdagi ekspertiza daslab joriy etilgan va rivojlanib kelayotgan davlatlar qatorida yetakchilik qiladi.

Ushbu ekspertiza nafaqat daraxtning yoshini, balki uni kesish (o'lim) vaqtini ham aniqlashga imkon beradi. Ushbu ekspertiza daraxtlarni noqonuniy kesish vaqtini aniqlashning eng samarali usuli hisoblanadi. Biroq, cheklov mavjud: kesish ya'ni o'limning aniq kalendar yili, agar u daraxtning o'sishi may-sentyabr davrida sodir bo'lgan bo'lsa, aniqlanishi mumkin. Agar kesish kuz va bahor o'rtasida sodir bo'lgan bo'lsa, unda aniq sanani aniqlab bo'lmaydi. Bunday holda, ikki yillik muddat ko'rsatiladi.

Dendroxronologik tekshirish usuli daraxt tanasining yillik halqalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi: Daraxtlarning yillik o'sishi ko'plab tashqi va ichki omillarga (jumladan, iqlim sharoiti, yorug'lik, daraxtning sanitariya holati, o'sish zichligi, tabiat hodisalari va boshqalar) bog'liq. Huddi shu hududda o'sadigan bir xil turdagi daraxtlar har yili taqqoslanadigan kenglikdagi halqalarni hosil qiladi. Daraxt halqalari tashqi sharoitlardagi o'zgarishlarni (masalan, qurg'oqchilik) sinxron tarzda aks ettiradi. Dendrolog daraxt halqalari kengligining umumlashtirilgan grafigini tuzadi va shu bilan ma'lum bir daraxt stendining kalendar portretini yaratadi. Buni inson barmoq izlari bilan solishtirish mumkin, shuning uchun ular ushbu daraxtlarning o'sish halqalari kengligi dinamikasining xususiyatlarini aniq aks ettiradi.



Qoidaga ko'ra, agar quyidagilarni aniqlash zarur bo'lsa, dendroxronologik ekspertiza o'tkaziladi:

- daraxtning yoshi;
- daraxtlarni noqonuniy kesishning mutlaq yoki nisbiy sanasi;
- olov tarqalish vaqti va chegaralari, uning intensivligi;
- daraxtlarga toksik ta'sir qilish davri (ifloslanishning boshlanish vaqtini aniqlash uchun).

Dendroxronologik tekshiruvda mutaxassisga berilishi mumkin bo'lgan savollar:

- Daraxt necha yoshda?
- Bu daraxt/daraxtlar guruhi hududning qaysi qismida o'sgan?
- Bu daraxt/daraxtlar guruhi qaysi kalendar yilida kesilgan?
- Daraxt tanasining alohida qismlari (novdalari, ildizlari) ilgari bir butunni tashkil etganmi?
- Qaysi kalendar yilida daraxtda u yoki bu yog'och nuqsoni paydo bo'lgan?
- U yoki bu ta'sir natijasida daraxt qaysi yili egilgan?

Daraxtlarni kesishning maqsadga muvofiqligini aniqlash ham dendrologik ekspertizaning vazifalari tarkibiga kiradi.

Bu vazifa o'rmonlarni kesish bilan bog'liq turli tadbirlarning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini tekshirish uchun amalga oshiriladi.

Bu tadqiqotda mutaxassis vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Kesib olingan yog'och hajmini aniqlash (daraxtlarning soni va turlari);
- Daraxt kesishning qonuniyligini aniqlash;
- Kesilgan daraxtlar hajmi va sifatining rejalashtirilganiga muvofiqligini baholash;
- Amalga oshirilayotgan o'rmon xo'jaligi faoliyatining samaradorligi va maqsadga muvofiqligini baholash va boshqalar.

#### Xulosa

Bugungi ekologik vaziyat yomon bo'lgan bir paytda, havoni tozalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan yashil olamni saqlab qolish har taraflama muhimdir. Biroq shunga qaramay daraxtlarni noqonuniy kesish holatlari sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda daraxtlar bilan sodir bo'layotgan baxtsiz hodisalar, xususan, yong'in, daraxtlarni mashina va uylarga qulash oqibatlari dolzarbli ham barchaga ayon. Shuning uchun ham daraxtlar va butalarning nobud bo'lishining turli holatlarini o'rganishda, daraxtlarni noqonuniy kesish holatlarini tekshirishda va turli baxtsiz hodisalarni oldini olishda dendrologik ekspertiza katta ahamiyatga ega. Mutaxassis matematik va statistik usullardan foydalangan holda ma'lumot to'plash va ularning ishonchliligini baholash, kesish sanasini bir oygacha aniqlik bilan ochib berishi mumkin. Dendrologik ekspertizani o'tkazish ilmiy jihatdan tasdiqlangan usullarga asoslanadi, bu esa uning natijalarini ishonchliligini kafolatlaydi.





Ekspertiza xulosalari tergovga zarur dalillarni to'plashda, sudga esa qonuniy qaror qabul qilishda yordam beradi

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.A.Q. Qayimov, E.T. Berdiyev. Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.
2. Arifxanov K.T., Slavkina T.I. Dendrologiya Uzbekistana. tom.XI, Izd-vo FAN UzSSR. Tashkent. 1981.
3. Rusanov F.N. Dendrologiya Uzbekistana tom II. Izd-vo FAN UzSSR.Tashkent, 1968.
4. Ю.В. ЛАТОВ,Ю.М. ЖАВОРОНКОВ.Труды Академии управления МВД России. 2013.